

8. Gil-Egui, G. Va Rieh, S. Y. (2008). Raqamli kutubxona xizmatlarini baholash uchun ko'p o'lchovli modelga. Amerika axborot fanlari va texnologiyalari jamiyati jurnali.

UO'K 159.5.6/6

JADIDCHILIK NAMOYONDALARINING FAOLIYATIDA KUTUBXONACHILIK MASALALARI

Begimqulov Z.A.

“Sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiiy fanlar” kafedrasi mudiri, p.f.b.f.d (PhD)

*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
Samarqand filiali*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkistonda XIX asrning oxirlarida maydonga kelgan, XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakatining mashhur namoyandalari faoliyati, yangi usul maktablari, buyuk jadidchilik namoyondalari tashabbuslari bilan ziyo maskani deb ataluvchi, jamiyat hayotining ajralmas qismi hisoblangan, nafaqat Turkistonda, balki Osiyo va Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida ham ma'lum va mashhur bo'lgan kutubxonalarining tashkil etilishi, ularni tarixda tutgan o'rni, adabiyotlar bilan to'ldirilishi, saroy kutubxonalaridan farqli jihatlari haqida so'z boradi.

Summary: In this article, the activities of famous representatives of the Jadidism movement, which appeared in Turkestan at the end of the 19th century and formed at the beginning of the 20th century, the new method schools, and the initiatives of the great Jadidism representatives, which are called the place of enlightenment, are considered an integral part of the life of the society, not only in Turkestan but also in many countries of Asia and Europe. It also talks about the organization of well-known and famous libraries, their place in history, their filling with literature, and their differences from palace libraries.

Kalit so'zlar: Jadid, kitob, jamiyat, uyg'onish harakati, qiroatxona, madrasa.

Keywords: Jadid, book, society, revival movement, reading room, madrasa.

Odatda kutubxona deyilganda avvalo ko'z o'ngimizda kitoblar jamlangan ziyo maskani gavdalanadi. Bu ma'rifat maskanlari jamiyat hayotining ajralmas qismi hisoblanib, unda kishilik jamiyati tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, nodir manbalar to'plangan insonparvar muassasa hisoblanadi. Kutubxonalar asrlar osha insonlarni yovuzlikka, jirkanch g'oyalarga, jaholatga qarshi kurashga undab, yosh avlodning ma'naviy salohiyati, dunyoqarashini yuksaltirishda, ularni ona yurti va xalqiga muhabbat hamda sadoqat tuyg'usi ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

XIX asrning oxirlari va XX asr boshlariga kelib Turkistonda jamiyatning eng ilg'or fikrli qatlamlari, ya'ni jadid namoyandalari kurashlarini aks ettirgan milliy uyg'onish muayyan mafkura

sifatida, birinchi navbatda, ma'rifatchilikda ko'rindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, "... o'tgan asr boshlarida, g'oyat murakkab tarixiy sharoitda milliy ozodlik, uyg'onish va taraqqiyot g'oyalari bilan maydonga chiqqan ma'rifatparvar ajdodlarimiz o'zlarining benazir salohiyati, noyob insoniy fazilatlari bilan fidoyilik va jasorat namunasini ko'rsatdilar".

Milliy uyg'onish harakati namoyandalari hisoblanuvchi jadidlar o'z xalqining erki, ozodligi uchun kurashib, ilmsizlikning taraqqiyotga keltirayotgan salbiy ta'sirini aniq misollar bilan ko'rsatib, o'z oldilariga xalqni ma'rifatlashtirish maqsadini qo'yanlar. Shu maqsadda ular nafaqat yangi maktablar ochganlar, balki keng xalq ommasi uchun yangi kutubxonalar ham tashkil qilganlar. Buni Turkistonda jadidchilik davri tarixi va adabiyoti vakillari ijodini o'rganganimizda ham kuzatishimiz mumkin.

"O'rta Osiyo jadidlarining otasi" deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi edi. U birinchi o'zbek dramasi "Padarkush"ni yozadi. Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga o'zining katta hissasini qo'shgan Mahmudxo'ja Behbudiy dastlab Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi, keyin muftiy darajasiga ko'tarildi. U haj safari davomida Arabiston, Misr, Turkiyada bo'lgan va unda yangi maktab ochish fikri mustahkamlanib borgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy O'rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo'lboshchisi hisoblanadi. Eng birinchi fan bo'yicha darsliklar yaratgan Behbudiy kutubxona tashkil qilishda ham birinchilardan bo'ldi. Uning tashabbusi va say harakatlari bilan o'z otasi sharafiga dastlab "Eski Samarqand musulmonlar kitob va qiroatxonasi", keyinchalik "Behbudiya kutubxonasi" deb atalgan kutubxona tashkil qilingan.

Behbudiy Samarqandda kutubxona tashkil etish uchun qizg'in tayyorgarlik ko'radi. Manbalarda keltirilishicha u o'n ikki nafar maslakdoshlari bilan birga 27 "bob"dan iborat dastur va nizom tuzib, uni Samarqand shahrining harbiy gubernatoriga yo'llab, ruxsat olinadi.

Ushbu ziyo maskani Samarqand gubernatoridan rasman ruxsat olinib, 1908-yil 11-sentabr kuni shaharning "Yangi rasta" qismida ochilgan. Lekin kutubxona ochilishi ancha avval ovoza bo'lib ketadi. Chunki bu haqda eng ommabop nashr "Turkiston viloyatining gazetasi" xabar qilgan edi.

Ziyo maskani faoliyatida Mahmudxo'ja Behbudiyga safdoshlari Hoji Muin, Vasliy Samarqandiy va muallim Abdulqodir Shakuriy ko'maklashishgan. Tarkibiy jihatdan juda boy, xilma-xillikka ega fondi bo'lgan. Jumladan, turli davlatlarda nashr qilingan diniy hamda dunyoviy kitoblar, suratli jurnal va gazetalar, ensiklopediya, lug'atlar, xarita va atlaslardan o'qib foydalanish mumkin bo'lgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy tashkil etgan va keyinchalik "Behbudiya" kutubxonasi nomi bilan mashhur bo'lgan mazkur mutolaaxona kitobxonlarga keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratishni ham o'z oldiga maqsad qilgan holda ikki smenada faoliyat yuritgan, ya'ni ertalab soat 9 dan kechki soat 5 gacha va kechki soat 6 dan boshlab 12 gacha ya'ni kuniga 14 soat ishlagan. Ushbu ziyo maskani bir vaqtda 60 dan 110 nafargacha bo'lgan kishilarga madaniy xizmat ko'rsata boshlaydi.

Ayniqsa, M.Behbudiy kutubxonada tarixiy asarlarga keng o'rin bergan. "Behbudiya" kutubxonasida mavjud va sotuvga chiqarilgan kitoblar ro'yxatining yetmish foizi tarixga oid asarlar

ekanligidan ko‘rish mumkin. Bu kitoblar orasida “Tarixi madaniyat”, “Tarixi islom”, “Buyuk tarixi umumiy”, “Tarixi istiqbol”, “Turk tarixi”, “Zafarnomai shohiy”, “Xulosai tarixi madaniyat”, “Oynai tarixi usmoniy”, “Madaniyati islomiya tarixi”, “Temurlang”, “Yigirmanchi asrda olami islom va Ovrupo”, “Tarixi kashf ul-Amriqo”, “Tarixi Eron”, “Tarixi Baxtiyori” va boshqalar mavjud edi.

O‘zining kimligini oshkor etishni hohlamagan Behbudiy zamondoshi guvohlik berishicha, Behbudiyning o‘limidan keyin u yaratgan “Kutubxonai Behbudiya”, unda jamlangan noyob kitoblar, kitobshunoslik va kutubxonashunoslik manbalari miqdoriga ko‘ra Turonzamindagi eng katta kutubxona ekanligi barchaga ayon bo‘lgan.

Turkistondagi jadid namoyandalari ichida kutubxona tashkil qilish tashabbuskorlaridan biri bu Munavvar qori Abdurashidxonov (1878-1931) edi.

Munavvar qori Abdurashidxonov XX asr boshida Turkistondagi jadidchilik harakatining faol ishtirokchilaridan biri bo‘lib tanildi. U 1901-yili usuli jadid maktabini ochgan va unga o‘zi mudarrislik qilgan. Munavvar qori Abdurashidxonov usuli jadid maktablari uchun maxsus o‘quv dasturini tuzgan, darsliklar yozgan. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari (1913 yil) mashhur bo‘ldi.

1911-yil Toshkentdagi ma’rifatchilar Abdulla Avloniy va Munavvar qori Abdurashidxonovlar tashabbusi bilan bir guruh ziyolilar tomonidan “Turon” nomli madaniy-ma’rifiy jamiyat tashkil qilingan hamda jamiyatning nizom va dasturlari qabul qilingan. “Turon” jamiyati faoliyatida Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Nizomiddin Xo‘jayev, Sa’dulla Tursunxo‘jayev, Ubaydulaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Komilbek Norbekov kabi ko‘plab taraqqiyparvarlar fidokorona faoliyat olib bordilar. Mazkur jamiyat dasturida kutubxona va qiroatxona ochish kabi muhim masalalar ham bor edi.

“Turon” jamiyati a’zolari kutubxona uchun dastlab o‘zlarining shaxsiy kitoblari, xayrehsonlar, sovg‘a va ayrim kishilarning vaqf qilib qoldirgan kitoblarini jamlay boshlaydi. 1913-yil Abdulla Avloniy boshchiligidagi “Turon” teatr truppasi tuzilganligi e’lon qilinib, Toshkentning Eski shahar qismida “Turon” kutubxonasi ham ish boshlaydi. Biroz o‘tib kutubxona qoshida qiroatxona ham paydo bo‘ladi.

1917-yilda shu jamiyat a’zolari – Abdulla Qodiriy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Cho‘lpon, G‘ulom Zafariy, Shokirjon Rahimiy, Yusuf Aliyev va boshqa bir qator ma’rifatparvar insonlar o‘z xususiy kitoblarini sovg‘a qilib, kutubxonalarini kengaytirdilar. Natijada yaxshigina kitob xazinasiga ega kutubxona va qiroatxona paydo bo‘ladi.

Yangicha maktab ta’limi ishiga o‘z hissasini qo‘shganlardan biri, yetuk shoir va bastakor, dramaturg va rejissor, ma’rifatchi va matbaachi, publitsist va jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929)dir. U 1889-yilning 7-martida Qo‘qon shahrida tabib oilasida tug‘ildi. U avval eski maktab va madrasalarda o‘qib, arab, fors, turk tillarini mukammal bilgan. Rus-tuzem maktablarida esa rus tilini o‘rganishga muvaffaq bo‘lgan.

Hamza o‘z davrining ilg‘or ma’rifatparvar jadidlari hisoblangan Turkiston jadidchilik harakatining rahbari Munavvarqori Abdurashidxonov hamda uning shogirdlari, yangi usuli jadid maktablari muallimlari aka-uka Shokirjon va Sobirjon Rahimiylar bilan yaqin aloqada bo‘lgan.

Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zining birinchi usuli jadid maktabini 1910-yili Toshkentdagi Qashqar mahallasida ochdi. 1911-1914-yillarda u Qo'qon va Marg'ilonda yana uch usuli jadid maktabining ishini tashkil etdi. Hamza o'zi tashkil etgan maktablarda dars beribgina qolmasdan, "O'qish kitobi", "Yengil adabiyot", "Qiroat kitobi" kabi darsliklar ham yozdi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy qisqa vaqt ichida birvarakay ikkita - "G'ayrat" (1915) va "Birlik" (1916) kitob uylariga asos soldi. U 1917-yili "Hurriyat" jurnalida bu haqda shunday deb yozadi: "... 1915-yil men majlis chaqirdim. Unda biz aholi orasida kitob tarqatish maqsadida "G'ayrat" nomli kutubxona, qiroatxona va nashriyot uyi tashkil etishga qaror qildik. Shu paytgacha men kitoblarimni o'z pulimga chop etib keldim, ular hajman uncha katta emas edi. Endi men o'zimning boshqa kitoblarimni mana shu kitob uyi nomidan nashr etmoqchi bo'ldim".

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash zarurki, Turkiston jadidchilari tomonidan kutubxonalarni tashkil etishdan asosiy maqsad eng avvalo yoshlar, maktab o'qituvchilari, madrasa talabalari, ziyolilarni yangi adabiyotlar, darsliklar, matbuot bilan muntazam tanishtirib borish edi. Chunki bu adabiyotlar va gazetalarni boshqa biror joydan topish amri mahol edi.

XX asr boshida Turkiston jadidchilik harakati rahnamolari mintaqa shaharlarida ma'rifatni keng targ'ib qilish maqsadida dastlabki ommaviy kutubxonalarga asos soldilar. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan ziyo maskanlarida adabiy-badiiy, ijtimoiy va tabiiy, ilmiy mazmundagi kitoblar bilan bir qatorda, mazkur maktab kutubxonalari o'zagini milliy o'quv adabiyotlari - darsliklar va qo'llanmalar tashkil etardi. Jadidlarning shaxsiy mablag'lari va xayriyalar hisobidan tashkil qilingan mazkur ziyo maskanlarida jamlangan adabiyotlar mazmuni va yo'nalishi o'sha davr saroy kutubxonalaridan ancha farq qilib, zamon ruhini aks ettirib turar, xalq ommasi, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etardi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh. Mirziyoyev. "Jadid" gazetasi jamoasi va mushtariylariga. "Jadid" gazetasi 2024-yil 1-yanvar № 1 (1).
2. Alimova D.A., Rashidova D.A. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. Toshkent-1999, 16-bet.
3. Абдурашидхонов М. Танланган асарлар. - Тошкент: Маънавият" нашриёти, 2003, 29-бет.
4. Behbudiy B. "Behbudiy kutubxonasi", "Oyina" jurnali, 1914-yil 26-aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr -2018, 14-bet.
5. Mahmudxo'ja bin Behbudxo'ja xatib. Mutolaaxona // Turkiston viloyatining gazetasi. 1908. №48.